

YUNESKO/Polsha Respublikasi hukumatining muhandislik sohasidagi stipendiyalar tanlovini e'lon qiladi

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasining 2019 yil 18 martdagি 067/19-sonli xatiga asosan, YuNESKO/Polsha Respublikasi hukumatining muhandislik sohasidagi 2019 yil uchun stipendiyalar tanlovini e'lon qilganligini ma'lum qilmoqchimiz.



Mazkur stipendiyalarning asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarda muhandislik sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh mutahassislarni qo'llab-quvvatlashdir. Tanlovda tanlab olingan nomzodlar Polsha Respublikasida olti oy davomida quyidagi sohalar bo'yicha o'qib, malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

- **Biotibbiyat mutahassisligi;**
- **Qurilish va transport mutahassisligi;**
- **Tuproqshunoslik va atrof-muhit;**
- **Atrof -muhit muhandisligi, konchilik va energiya;**
- **Materialshunoslik;**
- **Mexanika muhandisligi;**
- **Sotsiologiya fanlari.**

Tanlovga hujjatlar **joriy yilning 22 aprel kuniga qadar** YuNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Ma'lumot uchun: 71 267-05-42, 71 267-05 61 YuNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya kotibi.

Tanlov shartlari va ariza shakllari ilova qilinadi. [87-03-1078 pdf](#)